



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS**

**AFG‘ONISTONDA AYOLLAR HUQUQLARINING  
SHAKLLANISHI MUAMMOSI**

**Nizamova Mohidil Maxmud qizi**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*“Siyosiy fanlar” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi,*

*Tel: +998945208770, [nizamovamohidil@gmail.com](mailto:nizamovamohidil@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Afg‘onistondagi ayollar huquqlarining yuksalishi va pasayishi muhokama qilingan, ijtimoiy islohotlar, ularning ijobiliy va salbiy ta’siri hamda ayollar huquqlarini qo‘llab-quvvatlash yoki bekor qilishda davlat va nodavlat aktorlarning rolini yoritib berishga harakat qilindi.

**Kalit so‘zlar:** *Islom Amirligi, BMTKK, CEDAW, EVAW, NAPWA, BMT Xavfsizlik Kengashi, NAP.*

**Annotation:** This article discusses the rise and fall of women’s rights in Afghanistan, attempts to shed light on social reforms, their positive and negative effects, and the role of state and non-state actors in supporting or nullifying women’s rights.

**Key words:** *Islamic Emirate, UNCRC, CEDAW, EVAW, NAPWA, UN Security Council, NAP.*

### **KIRISH**

Afg‘onistonda ayollar huquqlari uchun kurash XIX asrga borib taqaladi. Afg‘oniston jamiyati chuqur konservativ, diniy va patriarxal jamiyat bo‘lib, ayollar huquqlarini himoya qiluvchilar uchun xavfli kurash va raqobat tez-tez bo‘lgan. Ayollarni ozod qilish uchun olib borilgan ijtimoiy islohotlar 1929-yilda Omonullaxonni surgunga yuborish va kommunistik hamda respublika rejimlarini yo‘q qilish sabablaridan biri edi.

Alovida qayt etish o‘rinliki, siyosiy o‘zgarishlarga qaramay, Afg‘onistonda davlatni ushlab turish uchun kuchli va mustaqil jamoat institutlari mavjud bo‘lmasligi. Afg‘onistondagi ayollar huquqlari tarix davomida mamlakatni kim boshqarayotganiga qarab o‘zgarib kelgan. Ba’zi hukumatlar turli xil ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish orqali afg‘on jamiyatida ayollarning mavqeini e’tirof etgan va mustahkamlagan bo‘lsa, boshqalari islohotlarni bekor qilish orqali ularni jamiyatdagi o‘rnini yo‘qotishga sababchi bo‘ldi. Ayollar mavqeini mustahkamlashga qaratilgan bu ijtimoiy islohotlarni Omonulloh, Zohirshoh va ma’lum muddat Sovet Rahbarligidagi kommunistik tuzum olib bordi, Habibullaxon, Mujohidlar va “Tolibon” hukumatlari esa bu islohotlarni bekor qildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

1996-yilda Afg‘oniston Islom Amirligining tashkil topishi bilan “Tolibon” juda agressiv siyosat olib bordi. Ular qizlarning sakkiz yoshga to‘lganidan keyin ta’lim olishini taqiqlab qo‘ydilar, ayollarni ishlashini, ularni jamoat joylarida butun tanalarini,



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shu jumladan yuzlarini yopishga majburladilar, ayollarning erkak shifokorga murojaat qilishlarini taqiqladilar. Erkaklar oila a'zosi bo'lib, ayollarga jamoat joylarida baland ovozda gapirishni taqiqlashgan edi. Ular radio eshittirishlarda ayollarning ovozini ta'qiladilar va ayollarning har qanday tasvirini jamoat joylarida yoki uyda ko'rsatishni noqonuniy deb bildilar<sup>14</sup>.

2001-yildan AQSh boshchiligidagi xalq koalitsiya kuchlari mamlakatga kirib kelgan keyin 2004-yilda yangi konstitutsiya qabul qilindi va unga ko'ra erkaklar va ayollar teng huquqlidir deb e'lon qilingan<sup>15</sup>. Unda parlament deputatlari va viloyat kengashi deputatliklarining 25 foizi, shuningdek, davlat xizmatining 30 foizi ayollarga ajratilgan edi. Shuningdek, bu Afg'oniston xotin-qizlar huquqlari bo'yicha 1325-sonli har bir ayolning kelajagini rag'batlantirish va ularning tinchlik madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasini rivojlantirish, yetakchilik rolini kuchaytirish, gender orqali ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha (BMTKK) va ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW) kabi barcha xalqaro konvensiyalarini hurmat qilinishi va amal qilinishi shart edi. Shu bilan birga, ayollar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish uchun mas'ul bo'lgan asosiy organ sifatida Xotin-qizlar ishlari vazirligi tashkil etildi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish qonuni (EVAW)<sup>16</sup>, Afg'oniston ayollari uchun milliy harakat rejasи (NAPWA) va BMT Xavfsizlik Kengashining 1325 - rezolyutsiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy Harakat Rejalari (NAP) qabul qilindi<sup>17</sup>.

Ayollar vazirlar, maslahatchilar, vazir o'rribbosarlari, viloyatlar hokimlari, Inson huquqlari bo'yicha komissiya rahbari etib tayinlandilar. Ayollar huquqlarini qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish va fuqarolik jamiyatida, ommaviy axborot vositalarida, madaniyat va sportda hamda xususiy sektorda ayollarning ishtirokini rag'batlantirish uchun bir qator moliyalashtirish sxemalari ishga tushirildi. Turli sohalarda xotin-qizlar salohiyatini oshirish bo'yicha qisqa va uzoq muddatli treninglar o'tkazish, fuqarolarning xotin-qizlar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish, oilaviy zo'ravonlik qurbanlarini boshpana bilan ta'minlash va tadbirkor ayollarni kichik va o'rta biznesni yo'lga qo'yishda qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab loyihibar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan edi.

2001-yilda "Tolibon" hokimiysi mag'lubiyatga uchragach va xalqaro hamjamiyatning kuchli ishtiroki tufayli jamiyatning "Tolibon" kabi konservativ elementlari chekinishdi va bu islohotlarning hech biriga qarshi chiqmadilar. Hattoki

<sup>14</sup> Fratus M, "What was life like under Taliban rule in the 1990s". - 18 August, 2021.

<sup>15</sup> Islamic Republic of Afghanistan. The Constitution of the Islamic Republic of Afghanistan. - 2004.

<sup>16</sup> Islamic Republic of Afghanistan. Law on Elimination of Violence against Women (EVAW), Ministry of Justice, 2009.

<sup>17</sup> Islamic Republic of Afghanistan. Afghanistan's National Action Plan o UNSCR 1325- Women Peace and Security, Ministry of Foreign Affairs, Directorate of Human Rights and Women's International Affairs, 2015.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

konservativ siyosat tarafidorlari xalqning “Tolibon” dan noroziligin anglab yetishdi. Ularning boshqaruvi ostida giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanish, terrorchilar uchun xavfsiz boshpana berish, shuningdek, ayollar va ozchiliklarni ta’qib qilish orqali Afg‘onistonda radikal qoidalarni o‘rnatish va yakkalab qo‘yishdan boshqa ko‘p narsaga erishilmadi.

11-sentabrdan keyin, AQSh va ittifoqchilarining Afg‘onistonga harbiy kuchlarini olib kirishidan so‘ng, gender, ijtimoiy adolatsizlik, bosqinchilik, qo‘rqitish ma’lum darajada pasayib ketdi, respublika, tenglik, erkinlik va demokratiya qisman tiklandi. Bu afg‘on ayollar uchun imkoniyatlardan biri bo‘ldi. Ayollarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki rivojlanishi boshladi, bu esa afg‘on ayollarining mamlakat bo‘ylab turli sohalardagi ilg‘or ishtiroki va yetakchiligidan dalolat berdi.

2014-yilda Ashraf G‘ani Afg‘oniston prezidenti etib tayinlandi. Qisman o‘zining islohotchi qiyofasi tufayli, G‘ani ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni va’da qilgan holda, ayollar va yoshlar orasida ko‘plab saylovchilarni jalb qildi. Milliy birlik hukumati ishga tushirilgandan so‘ng uning rafiqasi afg‘on ayollar uchun bolalariga xizmat ko‘rsatish uchun birinchi xonim idorasini ochdi.

Bu davrda imtiyozlar nafaqat hukumatda kuzatildi, balki 3G internet va arzon Xitoy smartfonlari butun mamlakat bo‘ylab minglab afg‘on qizlariga Facebook va Twitter kabi ijtimoiy platformalarga kirish va Afg‘oniston hamda jahon voqeliklaridan xabardor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xususiy telekanallar qizlar va oilalarga hind, turk va g‘arb seriallarini tomosha qilish, boshqa mamlakatlar madaniyati va an‘analari bilan tanishish imkonini berdi. Shu bilan birga, Afg‘onistonning shahar va qishloqlarida ta’lim olish imkoniyati sezilarli darajada oshdi va xususiy kurslar qizlarga ingliz tilini o‘rganish va dunyo bilan muloqot qilish imkonini berdi. Qisqa vaqt ichida (2014-yildan 2019-yilgacha) bu o‘zgarishlarning barchasi ahamiyatga molik edi<sup>18</sup>.

Biroq, 2021-yil 15-avgustda “Tolibon” tomonidan Kobul hokimiyyati qayta qo‘lga olinganidan so‘ng, mamlakatda yana afg‘on ayollarining huquqlari yana poymol qilindi va iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazgan holda uy-joylariga qamaldi. Afg‘on xotin-qizlarining so‘nggi yigirma yil ichida erishgan bunday imkoniyatlari va huquqlari ham yo‘qga chiqdi. Qizlarning maktab va oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishi, ayollarning davlat xizmatiga ishga joylashishi, ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, biznesdagi tadbirkorligi, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot-tashviqot ishlari bo‘ladimi, ayollarning nafaqat o‘z haq-huquqlarini, balki huquq va erkinliklarini cheklash holatlari ko‘paydi.<sup>19</sup>

Xalqaro hamjamiyat Afg‘onistonda ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

<sup>18</sup> “Afghanistan: Taliban morality police replace women’s ministry” BBC News. - 17 September, 2021.

<sup>19</sup> Fratus M., “What was life like under Taliban rule in the 1990s”. - 18 August, 2021.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ko‘rinib turibdiki, ayollar huquqlari uchun harakat munozarali va xavfli harakat bo‘lib, hukumatlarning qulashi sabablaridan biri sifatida ishlatalilgan. Islomiy va konservativ guruhlar go‘yoki islom dinida ayollar huquqlariga qarshiligini asos qilib olgan bo‘lsa-da, aslida ayollarni ozod qilish mamlakatning konservativ an’analariga zid keladi, ular ayol hayosi va iffatini chuqur qadrlaydi. Afg‘onistonning patriarchal jamiyatni uchun ayollarga vakolat berish, ularga o‘z huquqlarini amalga oshirish va mustaqil bo‘lishga imkon berish juda qiyin.

Afg‘on xotin-qizlar harakatining chinakam va tinimsiz sa'y-harakatlari xalqaro hamjamiyatning kuchli moliyaviy va siyosiy ko‘magisiz muvaffaqiyat qozonmas edi. Ko‘p jihatdan xalqaro donorlarning moliyaviy ko‘magiga bog‘liq bo‘lib kelgan AQSh kuchlari hisoblanadi. “Tolibon” rahbarligidagi Muvaqqat ma’muriyati o‘rnatilgacha ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yana og‘irlashdi. Umuman “Tolibon” kabi konservativ va fundamental guruhlar xotin-qizlar huquqlariga keskin va tajovuzkorlik bilan qarshilik ko‘rsatmoqda.

### **XULOSA**

Afg‘onistondagi turli bo‘ron va ixtiloflar natijasida, shuningdek mamlakatdagi diniy harakat qatlamlarining davlat boshqaruvidagi ta’siri tufayli afg‘on xalqlarining ijtimoiy-siyosiy huquqlari cheklanib kelgan. Afg‘oniston amiri Omonulloxon, Zohirshoh, Afg‘oniston sobiq prezidenti Xamid Karzay, Ashraf G‘ani rahbarlik qilgan davrlarda afg‘on xalqi erkin bo‘lib, haq-huquqlari ta’minlanib bir qator islohotlar o‘tkazildi, ammo “Tolibon” singari radikal va konservativ kuchlarning afg‘on xalqlarining imkoniyatlari keskin cheklangan siyosati hali ham davom etib kelmoqda. Bu esa afg‘on jamiyatini o‘rta asrlarga qaytishi va mamlakatni ijtimoiy-siyosiy parokandalikka olib kelishi mumkin. “Tolibon” tomonidan xotin-qizlarga nisbatan 30 dan ortiq ta’qiqlar qo‘yilgani yuqoridagi manzarani aks ettiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Buranov, S. (2022). Afghanistan as a Bridge Connecting Central and South Asia. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(2), 319-323.
2. Islamic Republic of Afghanistan. The Constitution of the Islamic Republic of Afghanistan. - 2004.
3. Boronov, S. (2022). Internal and external factors of taliban origin. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(02), 15-23.
4. Suhrob, B. (2020). The durand line-key of the afghan problem. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(2), 1315-1318.
5. Islamic Republic of Afghanistan. Law on Elimination of Violence against Women (EVAW), Ministry of Justice, 2009.

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



6. Islamic Republic of Afghanistan. Afghanistan's National Action Plan  
o UNSCR 1325- Women Peace and Security, Ministry of Foreign Affairs, Directorate of Human Rights and Women's International Affairs, 2015.
7. Fratus M, "What was life like under Taliban rule in the 1990s". - 18 August, 2021.
8. "Afghanistan: Taliban morality police replace women's ministry" BBC News. - 17 September, 2021.
9. "Afghan Women Activists meet Taliban in Oslo" Afghanistan Times. - 25 January, 2022.
10. "Freedom House, Afghan and International NGOs Launch the Afghanistan Human Rights Coordination Mechanism" Freedom House - 27 January 2022.
11. Taliban Ban Girls from Secondary Schools in Afghanistan. Available from: <https://www.theguardian.com/world/2021/sep/17/taliban-ban-girls-from-secondary-education-in-afghanistan>.
12. Valieva, N. (2023). MS Parma, Biblioteca Palatina, Parm. 3852: a meeting point for a medieval Ethiopian king-usurper with modern pro-Italian actors. Manuscript and Text Cultures (MTC), 2(1).
13. Valieva, N. (2021). The'Gadla Lālibalā collection of textual units': tradition and documentation (Doctoral dissertation, Staats-und Universitätsbibliothek Hamburg Carl von Ossietzky).
14. Валиева, Н. А. (2020). Философия религии, ее особенности и роль в обществе. Ученый XXI века, (1 (60)), 15-19.
15. Валиева, Н. А. (2023). 1917 ЙИЛ ФЕВРАЛЬ-ОКТЯБРЬ ОРАЛИФИДА ТУРКИСТОН. GOLDEN BRAIN, 1(30), 208-214.

